Xalqaro ekspert Flyvbjerg B. infratuzilma loyihalaridagi asosiy muammolardan biri sifatida byudjetdan chiqib ketish, rejalashtirishdagi noto'g'ri prognozlar va siyosiy manipulyatsiyalarni ko'rsatadi. U loyihalarda "strategik noto'g'ri baholash" hodisasiga urg'u berib, risklarni boshqarishda ochiqlik va mustaqil audit mexanizmlarining zarurligini ta'kidlaydi. Flyvbjergning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, risklarni real va tizimli tahlil qilish natijadorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Grimsey va Lewis esa infratuzilma sohasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli asosida amalga oshiriladigan loyihalardagi moliyaviy, institutsional va siyosiy risklarni o'rganib, ularning boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqqan. Ular loyihalarning hayotiy sikli davomida risklarni proaktiv tarzda aniqlash va ularni shartnomaviy mexanizmlar orqali taqsimlashni samarali yondashuv sifatida baholaydi.

O'zbekistonlik olimlar orasida A. M. Jo'rayev infratuzilma loyihalarini rejalashtirishda risklarni baholash indikatorlarini ishlab chiqqan bo'lib, u iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy ta'sir omillarini birgalikda hisobga olishni taklif etadi. Jo'rayevning tahlillariga ko'ra, mahalliy infratuzilma loyihalarida asosiy xavflar huquqiy noaniqlik, byudjet cheklovlari va loyiha boshqaruv tizimining yetarlicha rivojlanmagani bilan bog'liq.

Deng va Poon infratuzilma loyihalaridagi qurilish xavflarini baholashda statistik model va xavflarni tarmoq shaklida tahlil qilish metodologiyasini taklif qilgan. Ularning fikricha, infratuzilma loyihalarida kechikishlar va xarajatlar ortishining oldini olish uchun boshidan boshlab har bir bosqich uchun risk kartasi tuzish va ularni raqamli vositalar orqali monitoring qilish zarur.

BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi va Jahon banki hisobotlarida O'zbekiston kabi o'sib borayotgan davlatlar uchun infratuzilma loyihalarida texnik salohiyat, korrupsiyaga qarshi mexanizmlar va ochiq tender tizimlarining mavjudligi risklarni kamaytirishning asosiy omili sifatida e'tirof etiladi.

Ushbu yondashuvlar infratuzilma loyihalarida risklarni baholash va boshqarish faqat texnik emas, balki institutsional va siyosiy komponentlarga ham bog'liqligini ko'rsatadi. Risklarni samarali boshqarish esa nafaqat loyiha muvaffaqiyatini, balki butun mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy-tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida uzatish, modellashtirish, statistik tahlil va hujjatlarni tahlil qilish usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy milliy iqtisodiyot infratuzilmasi mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va aholi turmush sifatini yaxshilash uchun yanada rivojlantirishni talab qilmoqda. Infratuzilmaga sarmoya kiritishning ijobiy ta'siri Jahon banki, IQHT, BMT YEIKning bir qator tadqiqotlarida isbotlangan. Global raqobatbardoshlik indeksida (Jahon iqtisodiy forumi tomonidan tuziladi) yuqori o'rinlarni egallagan Shveysariya va Singapur misolida ularning reytingi infratuzilmaning rivojlanish darajasi hamda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligini yaqqol ko'rish mumkin. Mamlakatimizda ham infratuzilma – yo'llar, shifoxonalar, maktablar, bolalar bog'chalari, uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi va boshqa obyektlarni modernizatsiya qilishga ehtiyoj katta.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-apreldagi "Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 206-son¹ qarori ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir etildi. Ushbu qarorga asosan Xalqaro valyuta jamg'armasining Budget masalalari bo'yicha departamenti tomonidan "O'zbekiston Respublikasining davlat investitsiyalarini boshqarishni baholash to'g'risida" (PIMA) hisobot tayyorlangan. Ushbu hisobotda davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar berilgan:

Infratuzilma loyihalarini shakllantirishga qaratilgan tizimni yagona normativ-huquqiy hujjat orqali tartibga solish;

Infratuzilma va ijtimoiy soha loyihalarini tanlab olishning aniq mezonlarini ishlab chiqish;

Davlat resurslaridan moliyalashtiriladigan loyihalar portfelini shakllantirib borish;

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini davlat budjeti va investitsiyalarini boshqarish tizimlari bilan integratsiyalash;

1 <https://lex.uz/docs/-5975438>



Budjetdan mablag' olish va budjet tavakkalchiliklarini aniqlashni hisobga olgan holda DXShni baholash bo'yicha metodologiyani ishlab chiqish;

Davlat investitsiya loyihalarini boshqarish uchun avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish;

Loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini talab darajasida nazorat va tahlil qilish.

Shuningdek, 2020–2024-yillar davomida O'zbekistonning infratuzilma sohasini moliyalashtirishga ajratgan o'rtacha yillik mablag'lari umumiy investitsiyalar hajmi bilan taqqoslaganda, 2024-yilda bu ko'rsatkich 493,7 trillion so'mga (taxminan 39,03 milliard AQSh dollari) yetdi. Bu raqam 2020-yildagi 210,2 trillion so'mdan (8,90 milliard AQSh dollari) ortiqdir. Demak, 2020–2024-yillar davomida yillik o'rtacha investitsiyalar hajmi taxminan 98,74 trillion so'm (7,81 milliard AQSh dollari)ni tashkil etdi.

2024-yilda infratuzilma sohasiga ajratilgan mablag'lar umumiy investitsiyalar hajmining muhim qismini tashkil etgan. Masalan, 2024-yilda qurilish sohasidagi o'rtacha yillik o'sish sur'ati 5 foizni tashkil etgan.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik doirasida O'zbekiston 2020–2024-yillar davomida faol ish olib bordi. Masalan, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki (AIIB) bilan 2021-yilda 2,1 milliard AQSh dollari miqdoridagi yangi loyihalar uchun kelishuv imzolandi. Shuningdek, Xalqaro moliyaviy korporatsiya (IFC) 2024-yil moliyaviy yilida Markaziy Osiyoda 1 milliard AQSh dollaridan ortiq sarmoya kiritgan.

Mazkur davr mobaynida infratuzilma sohasiga ajratilgan o'rtacha yillik mablag'lar, umumiy investitsiyalar hajmi va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik darajasi hisobga olinsa, infratuzilma moliyalashtirishining sezilarli darajada oshgani ayon bo'ladi.

Infratuzilma investitsiyalari uzoq muddatli xarakterga ega bo'lib, ularning natijalari ko'pincha kelajakdagi noaniqliklar bilan bog'liq. Qaror qabul qilishda nazorat qilinadigan (boshqariladigan) omillar bilan bir qatorda, nazorat qilinmaydigan (boshqarilmaydigan) omillarni ham hisobga olish zarur bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi 2021–2030-yillarda infratuzilmani rivojlantirish uchun yillik o'rtacha moliyalashtirish hajmini YalMning taxminan 10 foizi darajasida belgilagan. Bu ko'rsatkich transport, energetika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va suv ta'minoti tizimlari kabi asosiy sohalardagi infratuzilma ehtiyojlarini qoplash uchun yetarli deb hisoblanadi.

DXSh loyihalari: O'zbekiston 2030-yilgacha DXSh asosida 63 ta yirik infratuzilma loyahasini amalga oshirishni rejalashtirgan. Ularning umumiy qiymati 30 milliard AQSh dollaridan ortiq bo'lib, ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, energetika va kommunal xizmatlar sohaslarini qamrab oladi.

Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik: Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki (AIIB) va Jahon banki kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda energetika va transport yo'nalishida yirik loyihalar moliyalashtirilmoqda. Masalan, AIIB tomonidan gaz va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoyalar yo'naltirilmoqda.

Yillik davlat budjeti orqali moliyalashtirish: 2024-yilgi davlat budjetida infratuzilmani rivojlantirish uchun 2,5 milliard AQSh dollari ajratilgan bo'lib, ushbu mablag'lar ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi, mahalla infratuzilmasi va hududiy rivojlanish loyihalariga yo'naltirilgan.

Xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: 2022–2026-yillar davomida O'zbekiston iqtisodiyotiga 120 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 70 milliard dollari xorijiy investitsiyalar hisoblanadi. Bu mablag'lar energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar va suv xo'jaligi sohaslariga yo'naltiriladi.

Infratuzilma investitsiyalari, o'zining uzoq muddatli xarakteridan kelib chiqib, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sezilarli noaniqliklar bilan bog'liq. Shu bois qaror qabul qilish jarayonida nazorat qilinadigan omillar bilan bir qatorda, nazorat qilinmaydigan omillarni ham chuqur hisobga olish zarur.

Infratuzilma obyektlari qurilishini moliyalashtirish uchun mablag'lar yetishmayotgan sharoitda ulardan foydalanishning maksimal samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, ko'plab loyihalarni amalga oshirishda qurilish bosqichida ham, foydalanish davrida ham muayyan muammolar yuzaga kelgan (masalan, kapital xarajatlar hajmining oshishi, qurilish muddatlarining cho'zilishi, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarining ko'payishi va boshqalar).

Ko'rinib turibdiki, bunday loyihalarda ayrim muhim jihatlar inobatga olinmagan yoki ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ya'ni, loyiha tuzish bosqichida risklar to'liq o'rganilmagan hamda ularni minimallashtirish bo'yicha kompleks yondashuvlar belgilanmagan. Investitsiya loyihasi tavakkalchiliklarini tahlil qilish – bu loyiha tashabbuskorlari o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga javob berishi lozim bo'lgan murakkab va tizimli faoliyatdir.

Infratuzilma loyihalarining turlari xilma-xil bo'lgani sababli, bu holat tavakkalchiliklarni aniqlash va ularni boshqarish xarakteriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Faqat infratuzilmaning o'zigagina emas, balki butun loyihani amalga oshirish, risklarni baholash va ularga qarshi boshqaruv tizimini ishlab chiqish loyihaning har bir bosqichi bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida infratuzilma loyihalarida risklarni baholash masalasiga 2010-yildan boshlab DXSh (Davlat-xususiy sheriklik) mexanizmlarini ishlab chiqish jarayonida e'tibor qaratila boshlandi. Asosiy



maqsad – aholiga sifatli xizmat ko'rsatish bo'yicha davlat vazifalarini bajarishda biznes tuzilmalarini jalb etishdan iborat edi.

Biznes sub'ektlari davlat tuzilmalariga nisbatan ko'proq moslashuvchanlik, harakatchanlik va innovatsion imkoniyatlarga ega bo'lib, bu infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini maqsadga muvofiq qiladi.

Mamlakatimizda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun mavjud bo'lib, u 2019-yil 10-mayda Prezident tomonidan imzolangan va 2019-yil 11-iyunda kuchga kirgan. Ushbu qonun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni tartibga soladi hamda infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar sohalarida xususiy investitsiyalarni jalb etish uchun zarur huquqiy asosni yaratadi.

DXSh mexanizmining asosiy jihatlari:

DXSh ta'rif: Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) – bu davlat sherigi va xususiy sherik o'rtasida muayyan muddatga tuziladigan, yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan hamkorlik bo'lib, DXSh loyihasini amalga oshirish uchun ularning resurslarini birlashtirishga asoslanadi.

Loyihani boshlash: DXSh loyihasi davlat organi (tashkiloti) yoki xususiy tashabbuskor (jismoniy yoki yuridik shaxs) tomonidan ilgari surilishi mumkin.


Tanlov tartibi: Xususiy sherik tender yoki to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar orqali aniqlanadi. Bunda tender mezonlari aniq bo'lishi va kamsituvchi qoidalarni o'z ichiga olmasligi kerak.

Bitim muddati: DXSh bitimi uch yildan kam va qirq to'qqiz yildan ortiq bo'lmasligi kerak.

Huquqiy kafolatlar: Agar keyinchalik qabul qilingan qonun hujjatlari DXSh shartlarini yomonlashtirsa, bitim tuzilgan sanadan boshlab o'n yil mobaynida xususiy sherikka nisbatan bitim tuzilgan vaqtdagi qonunlar qo'llaniladi.

DXShni rivojlantirish agentligi: Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi DXSh sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi.

Ushbu sohadagi ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, risklarni samarali taqsimlashda "oltin qoida" mavjud: risklar ularni eng samarali boshqara oladigan, oldini olish, bartaraf etish va nazorat qilish imkoniyatiga ega tomon zimmasiga yuklatilishi kerak. Bu esa tavakkalchiliklarni faqat huquqiy-rasmiy emas, balki iqtisodiy va boshqaruv nuqtayi nazaridan ham chuqur tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Risklarni samarali taqsimlash.

Ushbu tamoyil J. Delmon tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining 10.05.2019 yildagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son² Qonunida qo'llanilgan. Risklarni baholash uchun quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

Loyihani amalga oshirishning asosiy bosqichlari doirasida unga xos bo'lgan oldindan bashorat qilinadigan tavakkalchiliklarni aniqlash va tavsiflash;

Tavakkalchiliklarni baholashda qo'llaniladigan usullarni tanlash;

Faqat davlat sherigiga yuklatilishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklarni aniqlash;

Tavakkalchilikning yuzaga kelish ehtimoli va uning oqibatlarini baholash, shuningdek, davlat va xususiy sheriklar o'rtasida tavakkalchiliklarni ularni eng samarali boshqarish imkoniyatlari asosida taqsimlash (tavakkalchiliklar matritsasini tuzish);

Tavakkalchilik yuzaga kelgan taqdirda davlat sherigi majburiyatlarining shartli bajarilishi bilan bog'liq hodisa (shart, majburiyat) qiymatining oshishini (ehtimoliy og'ishlarni) aniqlash;

2 <https://www.lex.uz/ru/docs/-4329270>



Tavakkalchilik sodir bo'lgan holatda davlat sherigi zimmasiga tushadigan majburiyatlar hajmini aniqlash; Muvofiqlik ehtimolini baholash, mavjud tavakkalchiliklarni va ularning oqibatlarini davlat hamda xususiy sheriklar o'rtasida taqsimlash;

Sheriklar tomonidan tavakkalchiliklarni eng samarali boshqarish imkoniyatlari hisobga olingan holda tavakkalchiliklar matritsasini tuzish;

DXSh sxemasi bo'yicha loyihani amalga oshirishda ehtimoliy og'ishlarni aniqlash va ularni asosiy bosqichlar kesimida baholash.

DXSh loyihalari bo'yicha risklarni o'rganishda jahon amaliyotida qo'llaniladigan usullar majmui risklarni kataloglashtirish, shuningdek, sifat va miqdoriy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Risklarni baholashning asosiy bosqichlari va yondashuvlari sifat va miqdoriy metodlarga asoslanadi. Ularni amalga oshirishda zarur hollarda mutaxassislar, maslahatchilar va boshqa tegishli ekspertlar jalb etilishi mumkin.

Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish hamda risklarni dastlabki baholash bosqichlarida sifat yondashuvidan foydalanish afzalroq hisoblanadi. Miqdoriy yondashuv esa texnik-iqtisodiy asos (TIA)ni tayyorlash jarayonida qo'llaniladi. Bu bosqichda loyihani amalga oshirish bo'yicha takliflar asosida risklarning qiymat ifodasida yuzaga kelish ehtimoli va loyiha maqsadlariga ta'siri aniqlanadi.

Amaldagi qonunchilikda loyihalardagi risklarni kompleks baholash va ularni amaliyotda qo'llash zarurati nazarda tutilgan. Biroq bu holat muammoli vaziyatlarga olib kelishi mumkin, chunki O'zbekistonda bunday tajriba hali yetarli darajada shakllanmagan, shuningdek, turli sohalaridagi infratuzilmaviy loyihalarda risklarni baholash bo'yicha tasdiqlangan uslubiyotlar mavjud emas.

Shu sababli, risklar bilan ishlashda yanada chuqur va batafsil yondashuv talab etiladi. Bunday uslublarni ishlab chiqish zaruratini inobatga olgan holda, quyidagi amaliy tavsiyalarni keltirish mumkin.

Loyiha ijrochilari yoki uni muvaffaqiyatli amalga oshirishdan manfaatdor tomonlar loyihaning dastlabki bosqichlaridayoq qaysi risklar tegishli chora-tadbirlar ko'rishni talab etishini aniqlab olishlari lozim. Shubhasiz, avvalo hodisaning yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lgan risklarga, shuningdek, loyiha natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklarga alohida e'tibor qaratish zarur.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida risklar sikli – ya'ni barcha mumkin bo'lgan tavakkalchiliklarni aniqlashdan tortib, ularni boshqarishgacha bo'lgan jarayon – bosqichlarga bo'lish asosida yondashiladi (2-rasm).



2-rasm. Risklar sikli.

Risklarni taqsimlashning asosiy tamoyili – infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda riskni boshqalarga qaraganda yaxshiroq boshqara oladigan tomon zimmasiga yuklashdir. Jumladan:

Riskning yuzaga kelish ehtimolini boshqara oladigan tomon, masalan, qurilish riskini tajribasi, motivatsiyasi va nazorat vositalari yuqori bo'lgan xususiy hamkor zimmasiga yuklash;

Riskning loyiha samaradorligiga ta'sir darajasini boshqara oladigan tomon, masalan, davlat organlari budjetning tegishli xarajat majburiyatlarini davlat qarzi toifasiga kiritish orqali siyosiy tavakkalchiliklarning loyihaga ta'sirini kamaytirishi mumkin;

Tavakkalchilikni amalga oshirish oqibatlarini qoplash, jumladan: a) tavakkalchilikning ishtirokchining boshqa majburiyatlari yoki aktivlari bilan o'zaro bog'liqligi; b) tavakkalchilikni to'lov evaziga uchinchi tomonga o'tkazish imkoniyati (masalan, sug'urta qilish yoki aksiyadorlik kapitalida uchinchi tomon ishtiroki); v) tavakkalchilikni yakuniy iste'molchilar (shu jumladan, aksiyadorlar, soliq to'lovchilar yoki infratuzilma obyekt xizmatlaridan foydalanuvchilar) foydasiga qayta taqsimlash imkoniyati.

Risklarni samarali taqsimlash katta ahamiyatga ega bo'lib, bu loyihaning ishtirokchilari o'rtasida risklarni sifatli boshqarish uchun zarur rag'batlar yaratish hamda ularni qoplash uchun ajratiladigan mablag'lar hajmini kamaytirishni nazarda tutadi. Agar tomonlardan biriga juda kam yoki haddan tashqari ko'p risklar yuklatilsa, bu holat loyiha samaradorligi va risklarni boshqarish darajasining pasayishiga olib keladi. Muvozanat saqlanishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda risklarni boshqarish masalasi so'nggi yillarda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda yirik transport, energetika, suv ta'minoti va boshqa infratuzilma sohalarida keng ko'lami loyihalar amalga oshirilmoqda, bu esa turli toifadagi risklar (moliyaviy, huquqiy, texnik, ekologik va boshqalar) bilan yuzma-yuz kelishni talab qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki,



ayrim loyihalarda risklarni baholash va boshqarish mexanizmlari yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Bu esa resurslarning samarasiz sarflanishiga, qurilish muddatlarining cho'zilishi va sifatning pasayishiga olib kelmoqda. Loyiha hayotiyliigi (sustainability), manfaatdor tomonlar o'rtasidagi mas'uliyat va xavflarni taqsimlash kabi jihatlar hali to'liq tizimlashtirilmagan. Shu bilan birga, risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish bo'yicha xalqaro standartlarga mos yondashuvlar joriy etilayotgani quvonarli holatdir. DXSh (davlat-xususiy sheriklik), raqamli monitoring tizimlari va institutsional islohotlar orqali risk menejmentining samaradorligi ortmoqda.

Shuningdek, risklarni boshqarish tizimini institutsionallashtirish maqsadida har bir yirik infratuzilma loyihasi uchun alohida risklarni boshqarish rejasini ishlab chiqish majburiy holga aylantirilishi, vazirliklar va agentliklar tarkibida risk menejment bo'limlari tashkil etilishi zarur. Xalqaro tajribalarni joriy etish bo'yicha Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi tashkilotlarning loyiha boshqaruvi bo'yicha metodikalari asosida milliy standartlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Risk baholashda SWOT, PESTLE, Monte Carlo kabi metodlarni amaliyotga joriy etish zarur.

DXSh loyihalarida risklarni taqsimlash mexanizmlarini aniq belgilash, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi risklarni taqsimlash (risk-sharing) shartnomalarda huquqiy jihatdan mustahkamlanishi lozim. Xususiy investorlar uchun kafolatlangan daromad, soliqqa oid yengilliklar yoki siyosiy risklardan himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Raqamli texnologiyalardan keng foydalanish orqali loyihalarda risk monitoringi uchun avtomatlashtirilgan raqamli platformalarni yaratish, GIS, BIM (Building Information Modeling) va big data texnologiyalari yordamida risklarni real vaqt rejimida tahlil qilishni yo'lga qo'yish zarur. Mutaxassislar salohiyatini oshirish maqsadida risk menejmenti bo'yicha malaka oshirish kurslari va xalqaro sertifikatlash dasturlarini tashkil etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni – "Harakatlar strategiyasi" // www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonuni-. // www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-son qarori – "Davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma loyihalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" // www.lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 apreldagi 206-son qarori - "Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi // www.lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi – "Davlat investitsiyalari dasturi va loyiha boshqaruvi" (rasmiy ma'lumotlar) // www.invest.gov.uz
6. Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB). Project Risk Assessment Guidelines. ADB Publications, 2019. <https://www.adb.org>
7. Jahon banki. Project Risk Management Guidance for Infrastructure Projects. World Bank Group, 2018. <https://www.worldbank.org>
8. Xodjaev A.M., Karimov N.R. Loyihalarni boshqarish va baholash asoslari. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2021.
9. Mamatqulov I. Investitsion loyihalarni boshqarish: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
10. Soliyev B. Davlat-xususiy sheriklikning huquqiy asoslari va amaliyoti. – Toshkent: "Adolat", 2022.
11. PMBOK® Guide – A Guide to the Project Management Body of Knowledge, 7th Edition, Project Management Institute (PMI), 2021.
12. Kerzner H. Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling. – Wiley, 2017.
13. UNIDO. Manual for the Preparation of Industrial Feasibility Studies. – United Nations Industrial Development Organization, 2019. <https://www.unido.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>